

HAYVONOT VA NABOTOT DUNYOSI ASOSIDAGI METAFORALAR KOGNITSIYASI

Saidjalolova Nodiraxon Saidakram qizi
Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola hayvon yoki o'simlik nomlari asosidagi metaforalar kognitsiyasi tahliliga bag'ishlanadi. She'riy asarlar misolida hayvon obrazlari orqali inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda tilning so'z boyligiga e'tibor qaratiladi. Maqolada zoomorf va fitomorfik metaforalar tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *til, madaniyat, leksema, zoomorf, metafora, kognitsiya.*

ПОЗНАНИЕ МЕТАФОР НА ОСНОВЕ ЖИВОТНОГО И РАСТИТЕЛЬНОГО МИРА

Саиджалолова Нодирахон Саидакрам қизи

Аннотация: *Данная научная статья посвящена анализу познания метафор на основе названий животных или растений. Исследуется способность языка выразить человеческую внешность через зооним или фитоним.*

Ключевые слова: *язык, культура, лексема, зооморф, метафора, когниция.*

COGNITION OF METAPHORS BASED ON ANIMAL AND PLANT WORLD

Saidjalolova Nodiraxon Saidakram qizi
Namangan State University
Master's student

Annotation: *This scientific article deals with the analysis of the cognition of metaphors based on animal or plant names. The ability of language to express human appearance through zoonim or phytonim is examined.*

Key words: *language, culture, lexeme, zoomorph, metaphor, cognition.*

KIRISH

Bugungi kunda ilm-fanning barcha sohalari jadallik bilan rivojlanib, yangiliklarga to'lib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar yangi nazariyalar kashf etilishi hamda ularning amaliyotga joriy etilishiga zamin yaratmoqda. Tilshunoslikda bu jarayon alohida yangi zamonaviy yo'nalishlarning paydo bo'lishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tilga antroposentrik yondashish natijasida bir qator yangi fan yo'nalishlari paydo bo'ldi. Badiiy tasvir vositasi sanalmish metaforaning kognitiv jihatlarini tadqiq etish ilmiy yangilik hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida metaforalar o'rganilgan bo'lsa-da, uning mavzu mundarijasida inson tafakkuridagi jarayonlar, kognitiv jihatlar borasida nazariy va amaliy yangiliklar yetarli

emas. Mazkur holat metaforalar kognitsiyasi obykti doirasida yangi predmetlarni o'rganish vaqti kelganligini ko'rsatadi.

Metaforalar kognitsiyasi tilshunoslikning xususiyligidan umumiylikka intilayotgan sohalaridandir. Chunki metaforalar kognitsiyasining tadqiqot doirasida o'rganilayotgan obyektlar nafaqat tilshunoslik uchun, balki psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika kabi turli sohalar uchun ham dolzarb va o'zaro bog'liqlikda o'rganilishi talab qilinadi. Biz o'rganayotgan hayvonot va nabotot nomlari asosidagi metaforalar ham shu sohaning obykti bo'lishiga qaramasdan boshqa ijtimoiy sohalardan ajralgan holda tadqiq qilinmaydi. Tizimli tadqiqni talab qiluvchi ushbu tadqiqotning dolzarblik darajasi ham keng qamrovlidir.

Ma'lumki, inson narsa, predmetlar hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy-ruhiy faoliyatni amalga oshiradi. Buning mantiqiy natijasi bo'lgan tushuncha obraz va lisoniy ma'no bilan umumlashgan holda kognitiv tilshunoslikda asosiy figura sifatida o'rganilayotgan konseptning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Kognitsiya (cognition), ya'ni bilish faoliyati axborot (ma'lumot)ni qabul qilish, taqdim etish va yaratish harakatlari hisoblanadi [7].

Aytish joizki, kognitiv tilshunoslik, tilshunoslikda til va ongning o'zaro bog'liqlik muammolari, dunyoni tushunish va tasniflashda tilning roli, kognitiv jarayonlarda va insonning tajribasini umumlashtirgan holda shaxsning individual kognitiv qobiliyatlarini til va ularning o'zaro ta'sir shakllari bilan bog'liqligini o'rganadigan yo'nalishdir.

Tadqiqot obykti va uslubiyati

Ma'lumki, metaforalar haqidagi nazariy qarashlar qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan. XX asrning so'nggi choragida ma'no ko'chishining usullaridan biri hisoblangan bu hodisaning inson kognitiv faoliyatiga ham xos ekanligi haqidagi qarashlar ilgari surila boshladi. Bu metaforaga antroposentrik nuqtai nazardan yondashish natijasi edi. Inson bilish va til orqaligina o'zini Olam markazida deb his qiladi. U olamni o'z tiliga mos holatda qabul qiladi, tilida va madaniyatida aks etgan darajadagina ko'ra oladi. Inson o'z tanasi, qalbi, nutqiga ega shaxs sifatida mavjud bo'ladi, shuningdek, uning insoniy hissiyotlari va boyliklari, fikrlari va so'zlari, xatolari va hislari bilan yaxshi odam, yovuz odam, osiy inson, avliyo, ahmoq, daho sifatida gavdalanadi [9].

Metafora tildagi universal hodisa bo'lib, u barcha tilga xosdir [8]. Uning universalligi makonda va zamonda, til strukturasi hamda uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Metafora o'zida fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangandir. Metaforalar kognitsiyasini o'rganish jarayonida psixolingvistikaning roli katta. Chunki psixolingvistika til va tafakkur munosabati asosida tadqiq olib boradi. Nutqiy birliklarning psixolingvistik tadqiqot doirasida o'rganilayotgani metaforalarni anglash uchun yangi qirralarining ochilishiga asos bo'ladi. Hayvonot va nabotot olami nomlari asosidagi metaforalar kognitsiyasini aniqlash bo'yicha ushbu ishimiz dastlabki izlanishlardan hisoblanadi. Umuman, metaforalar tez eskirib, o'rniga yangisi kelib

turishi bilan tavsiflanadi. Quyidagilar keyingi tadqiqotlarning obyekti va vazifalarini tashkil qiladi:

- Metaforalarning umumiy va milliy o'ziga xosliklarini o'rganish.
- Metaforalar kognitsiyasini tadqiq etish.
- Kundalik hayotda metaforalarning o'rni.
- Tilshunoslikda kognitivlik va o'zbek tilini kognitiv o'rganish omillari.
- Kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalari.
- Metaforaning kognitiv nazariyasini ochib berish.
- Kognitiv tilshunoslikda metaforaning o'rganilishi.
- Metafora turlari va uning kognitiv ahamiyati.
- Fitomorfik metaforalarnig o'ziga xos xususiyatlari.
- Zoomorfik metaforalar va ularning tasnifi.

Tadqiqot natijalari

Hayvon va o'simlik nomlari asosidagi metaforalar lingvokulturologik jihatdan ham farq qildadi. Quyida she'riy misollar orqali tahlil qilamiz.

Biz ham yuksaklarga tikkandik ko'zni,
Bizda ham bor edi matonat, bardosh.
Arslon chorlagandi qoshiga bizni,
Lekin qumursqalar bo'ldi safardosh.
Jami tiriklikka ma'lum shu xatar,
Qumursqa yaralgan yoppa talarga.
Do'stim, alam qilar, arslon bexabar,
Yem bo'lib ketsak shu qumursqalarga.

Abdulla Oripovning "Arslon chorlagandi..." she'ri arslon hamda qumursqa misolida insonlarning ayrim xarakterlari tasvirlangan. Qumursqa orqali faqat mayda-chuyda tashvishlar bilan yashaydigan, qorin g'amidan boshqasini o'ylamaydigan odamlar nazarda tutilyapti. Birovlarning mukini talon-taroj qiluvchilarga ishora ham deyish mumkin. Qumursqa juda ko'p va mayda bo'ladi. Hayotda o'z fikriga ega, yangilikka intilgan insonlarni qaytarmoqchi bo'ladigan xudbin odamlar ramzi sifatida qarash mumkin.

Chumoli

G'ayrat kamarini beliga bog'lab,
O'zidan kattaroq cho'pni ortmoqlab,
Manzilga tez yetmoq yolg'iz xayoli—
So'qmoq yo'ldan borar chumoli.
Atrofiga boqmas, ishlar uzun kun,
Ko'pning xirmoniga qo'shmoq uchun don...
Yo'q, Odam ajdodi bo'lmagan maymun,
Chumolida tarqalgan inson.

O'zbek xalqi tasavvurida chumoli mehnatkashlik timsoli sifatida qaraladi. Xuddi shu kognitsiya yuqoridagi she'rda ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Keksa qayrag'ochning ildizin olib,
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
Sira qo'zg'almasdi ungan yeridan...
Nihoyat gurs etib yerga quladi,
Butab, so'ng ko'tarib ketdilar, biroq—
U o'z panjasida olib jo'nadi
Yashagan yeridan bir siqim tuproq.

Erkin Vohidov qalamiga mansub ushbu she'r chuqur ma'no-mazmun kasb etadi. Sadoqat konsepti kekxa qayrag'och ramzi orqali ifodalangan bo'lib, muallifning kognitiv-diskursiv faoliyatida qo'llangan o'xshatish matnning metaforik mazmun kasb etishiga olib keldi.

Avtobusdagi o'ylar
Sabr daraxtiday o'sgan odamlar—
Saksovul singari chidamli, chayir,
Yerga botib ketgan bahodirlarday
Kunlarga qaraydi siniq iljayib.

Shavkat Rahmonning yuqoridagi satrlarida insonning sabrini, ruhiy va jismoniy quvvatini saksovulga qiyoslash orqali metafora hosil qilinmoqda. Saksovul o'simligi cho'lda o'sgani tufayli unga bardosh, chayirlik belgisi sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganimizda, olamda hamma narsa bir-biriga bog'liq yaratilganidek, insoniyat ham tabiat bilan chambarchas yashaydi. Kishining xatti-harakatlari, xarakteri va tashqi ko'rinishini hayvon yoki o'simlik nomlari bilan atash yoki o'xshatish buning yaqqol isbotidir. Shuni aytish mumkinki, badiiy adabiyotda qo'llangan hayvonot va nabotot olami nomlari asosidagi metaforalar o'zbek xalqining ijtimoiy va madaniy hayotida juda muhim o'rin tutib, majoziy ma'noda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik, tozalik va ifloslik, erkinlik va tutqinlik kabi tushunchalarni ifodalab keladi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, ular til va madaniyatimizning ajralmas tarkibiy qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Is'hoqov F. «Zarbulmasal»dagi qush nomlariga doir / O'zbek tili va adabiyoti, 1973. - № 1.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Академия, 2001. - С. 208.
3. Кузиев У. Я. About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbek language and dictionaries) //Научные исследования: теория, методика и практика. – 2017. – С. 281-286.

4. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015.
5. Salimova. Turk tilida zoonim va fitonimlar orqali inson qiyofasiga murojaatning o'ziga xosliklari. ToshDSHU.
6. Хўжамқулов А. Ўзбек тилида метафоранинг таснифланишига доир // Лингвист (илмий мақолалар тўплами). -Тошкент: Arademnashr, 2011. - Б. 87.
7. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91
8. Будаев Э.В. Становление когнитивной теории метафоры // Лингвокультурология. Выпуск 1. – Екатеринбург, 2007. – С.16-32.
9. Saidova M. MAN, LANGUAGE AND CULTURE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 4. – С. 223-226.